



## **METHODS OF TEACHING EXPRESS READING TEXT IN LITERATURE CLASSES**

Abdugaffarova Shahnoza Jurakulovna

Samarkand city 55th comprehensive school Mother Tongue and Literature Teacher,  
+998 91 5223532

### **Abstract**

The relevance of the formation of literary competence in students in this article; requirements for the expressiveness of the teacher's and student's speech in education; ideas on how to teach prose, poetry, drama to expressive reading.

**Keywords:** interactive, method, creative thinking, independent thinking, expressive reading, pause, emphasis, text, education, art, role reading, speech.

Ta'lim jarayonini amalga oshiruvchi o'quv ishlari, uning mazmuni, shakl va metodlarini zarur emotsiya bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hissiy holatlar hamisha ruhiy bezovtalik, ko'ngil hayajonlari, o'zgani tuyish, quvonch, nafrat, hayrat singari tuyg'ular bilan bog'liq. E'tibor qilish, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsiy chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qo'shilganda u faollashadi, zaruriy intellektual marranning egallanishi ta'minlanadi. Insonning his-tuyg'ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas.

Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlari tuyg'ulari, ulardagi g'ayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o'quvchida turli hissiyotlarni uyg'otadi.

Badiiy asarda ilgari surilgan g'oya, fikr va mulohazalarni anglash uchun ularning mantiqiy asosini topish talab qilinadi. Shuning uchun o'quvchi tafakkuri va faoliyatida mustaqillikni ta'minlovchi mantiqiy metodlardan alohida maxsus darslarda emas, umuman, adabiy ta'lim sohalarining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin [1].

O'quvchida ma'naviy barkamollikni ta'minlash asosi bo'lgan mustaqil tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda mantiqiy metodlar ko'proq samara beradi.

Ifodali o'qish darslarining muxim vazifalari va o'ziga xos tomonlari bor.

Ifodali o'qish badiiy asarni tahlil etish uchun zamin hozirlaydi va asarning g'oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatini o'rganish uchun xizmat qiladi. Chunki badiiy asarni ifodali o'qish jarayonidaunda aks etgan voqelik obrazlar xatti-harakati o'quvchi ko'z oldida gavdalananadi. Badiiy asarlarni ifodali o'qish orqali uning his-hayajonli tomonlari og'zaki talaffuz natijasida hamda mimika, zaruriy harakatlar, ohang yordamida to'la ochiladi.

Ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, o'qituvchi birinchi navbatda o'z nutqiga, so'ngra o'quvchilarning nutqiga nisbatan katta talabchanlik bilan qarashi zarur.

Ifodali o'qish tez o'qish degani emas. Bu erda matnni o'qish deganda, eng avvalo, matn mazmunini ongli ravishda o'zlashtirish nazarda tutiladi. Ifodali o'qish birinchi galda tabiiy o'qishdir, o'zi anglagan tushungan bilgan narsalarni boshqalarga ham to'la yetkazish demakdir [2].

Ifodali o'qishda mantiqiy urg'ularga katta e'tibor beriladi. O'qish kerak bo'lgan joylarda ayrim ifodalarni qayta o'qish, o'qish tempini matndagi mazmun, ohang talabiga ko'ra sekinlashtirish, tovushni pasaytirish yoki ko'tarish, ayrim holatlarda esa pauza – to'xtamlarga urg'u berish talab etiladi. Ifodali o'qishning eng asosiy talabi nutq texnikasini egallas bilan bog'liq [3].

Ifodali o'qishga oid ko'nikma va malakalar:

- Adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish;
- Berilgan topshiriqlar asosida badiiy matnlarni mustaqil ravishda o'qiy olish va uning asosiy mazmunini tushunish, his etish.



- Badiiy asarlarning janr xususiyatlari va uslubiy o‘ziga xosliklarini anglagan holda ifodali o‘qiy olish.
- Qahramonlarning holati ruhiy ahvoli, boshqalar bilan munosabatidagi o‘rniga ko‘ra o‘qish ohangida ularni ifodalashga harakat qilish.
- Rollarga bo‘lib o‘qishni uddalash.
- Asar matnini tegishli qismlarga ajrata olish.
- Asar yoki uning ayrim qismlariga xos bo‘lgan asosiy fikrni ajrata olish.
- Qahramonlardagi yozuvchi ko‘zda tutgan u yoki bu ma’naviy – axloqiy xususiyatlarini tasdiq yoki inkor etish uchun asardan tegishli misol, namunalarni tanlash va tavsiflay olish.

Yuqoridagi ko‘nikma va malakalarga rioya qilinsa, ko‘zlangan maqsadga erishish ancha samarali kechadi. Ifodali o‘qish jarayonida o‘quvchilarga tinish belgilariga rioya etib o‘qish malakaalarini takomillashtirib borish joiz. Bundan tashqari badiiy matnni o‘qib, uni og‘zaki hikoya qilib berish asar mazmunini to‘la tushunishga olib keladi. Asar mazmunini to‘la tushungan o‘quvchi matnni to‘g‘ri ifodali o‘qishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Q.Oripov, M.Obidova. Ifodali o‘qish. T. “O‘qituvchi”-1994.
2. Q. Husanboyeva, R.Niyozmetova, “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, Toshkent-2018.
3. N.Mahmudov “O‘qituvchi nutqi madaniyati” T. “O‘zbekiston milliy kutubxonasi”-2007.